

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

15. Таниева Гулдона Мамановна МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРИХИДА ҲАЖ СИЁСИЙ БАДАРҒА ҚУРОЛИ СИФАТИДА	119
16. Хакимова Саида Бахтиёровна «ТУРКЕСТАНСКИЙ СБОРНИК» КАК ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	125
17. Yuldasheva Muslima Ma'murovna RISHTONDA CHINNI ISHLAB CHIQARISH TARIXI	132
18. Shermatova Guljahon Sultonovna XORAZMSHOHLAR DAVLATCHILIGI TARIXIGA DOIR MANBALAR XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	137

Shermatova G. S.

Farg‘oga davlat universiteti 1-bosqich magistranti

shermatovaguljahon4@gmail.com

XORAZMSHOHLAR DAVLATCHILIGI TARIXIGA DOIR MANBALAR XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘rta Osiyo, Sharq tarixida balki, dunyo tarixida salmoqli o‘rin tutgan Xorazmshohlar davlati manbashunosligi, Xorazm tarixining oltin davri haqida ayrim ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Oltin davr, Anushteginiylar, tarixiy manbalar, Jaloliddin Manguberdi, Ibrohim Kafes o‘g‘li, qo‘lyozma asarlar.

KIRISH

O‘zbekiston siyosiy xaritasida juda kichkina joyni egallagan Xorazm o‘lkasining qadimiyatiga nazar tashlasak, qadimda faqat O‘rta Osiyo, Sharq tarixida balki, dunyo tarixida salmoqli o‘rin tutganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘lka tarixida miloddan oldingi II-I mingyilliklarda davlatchilik ildizlari shakllanib Katta Xorazm davlati barpo etilganligi, jahon tarixidagi eng qadimiy asar hisoblangan “Avesto” kitobining yaratilishi, milodiy asr boshlarida afrig‘iylar, keyinchalik ma’muniylar, anushteginiy-xorazmshohlar mamlakatlarining dunyo tamaddunida Xorazmning buyuk tarixidan dalolat beradi. Bu o‘lkaning bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, davlatchilik taraqqiyoti, u yerda yashab o‘tgan mashhur shaxslari haqida qadimgi yunon, rim solnomachilari, arab, fors, turkiy, xitoy tillarda bitilgan muarrixlarning bitiklari, sharq allomalari, keyinchalik XVII-XIX asrlar oralig‘ida Yevropa olimlari yuzlab tarixiy, ilmiy, badiiy, geografik asarlar yaratib Xorazmning dunyo tarixida tutgan o‘rni beqiyos ekanligidan dalolatdir.

Afsuski, keyingi o‘tgan 1-1,5 asr vaqt davomida, xususan, sobiq sho‘rolar davrida xalqimiz Xorazm tarixini, bu hududda yashab o‘tgan buyuk shaxslari taqdirini, ular to‘g‘risida yozilgan tarixiy asarlarni to‘la o‘rganish, o‘qish, ilmiy tadqiq etish imkoniyatlaridan mahrum edilar. Bu davrda faqat Xorazm tarixiga oid rus tilidagi ayrim kitoblar hamda Xorazmiy, Beruniy va Pahlavon Maxmud kabi buyuk ajdodlarimizning ayrim asarlari aytmaganda xalqimiz bunday boy merosdan uzib qo‘yilgandi.

Davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, tarixiy meroslarimizni to‘liq, asl manbalar yordamida o‘rganish boshlandi. Bu ish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bunday yuksak ishlar tufayli Xiva shahrining 2500 yillik, Avesto kitobi yaratilganligining 2700 yillik, Xorazm Ma’mun akademiyasi tashkil topganligining

1000 yillik, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yillik to'ylarining xalqaro miqyosda o'tkazilishi bu xayrli ishlarning debochasi bo'ldi desak ayni haqiqat bo'lardi. Asl tarix tilga kirdi va bu o'lka tarixini qadimiy arxeologik, yozma, nodir bitiklar, aniq hujjatlar bilan o'rganishga imkon yaratildi. Mazkur maqolada Xorazmshohlar davlati haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalarni klassifikatsiya qilishga harakat qilamiz.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tarixdan ma'lumki, IX-XI asrlar yurtimiz, jumladan, Xorazm tarixida oltin davr deb yuritiladi. Chunki, bu davrda Xorazm har taraflama xususan, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda yuksak darajalarga erishgan. Davlatchilik taraqqiy etdi. Anushteginiy-Xorazmshohlar davlati bir tomoni Orol dengizidan Hind okeanigacha, ikkinchi tomoni Sirdaryo bo'ylaridan Qora dengizgacha bo'lgan hududlarda ulkan imperiya yaratdilar. Ikkinchidan, Anushteginiylar qo'l ostidagi mulklarda ulkan miqyosda qurilish, bunyodkorlik ishlarini olib bordilar. Uchinchidan esa, ilm fan xususan, adabiyot, san'at juda rivojlandi. Gurganch shahrida 1000- yillarda faoliyat olib borgan Ma'mun akademiyasi o'z davrida faqatgina sharqda emas, balki, butun dunyoda ilm-fan markazi vazifasini o'tagan. Bu akademiya 400 dan ortiq allomalar ilmiy faoliyat olib borib ilm-fanning turli sohalarida kashfiyotlar yaratganlar. Qolaversa bu davrda Xorazm diyorida ulug' shaxslar xususan, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Alouddin Otsiz, Jaloliddin Manguberdi, Temur ilm-fan sohasida, davlatchilikni yuksaltirish, obodonchilik, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib yurt nomini ulug'ladilar. Aynan shunday buyuk shaxslarning ulug' ishlari tufayli bu davr Xorazm tarixida oltin davr sifatida tarix zarvaraqlarida muhrlandi.

Yurtimizda mustaqillikdan so'ng ushbu o'lka tarixini asl manbalar orqali o'rganish ishlari boshlandi. Aynan shu davrga oid ishonchli manbalar bo'lgan ansab" asarlarining Xorazm tarixiga oid qismlari, Abu Mansur as-Saolibiyning "Tatimmat al-yatima", Shihobuddin Muhammad an-Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mengburni", Alouddin Otamalik Juvayniyning "Tarixi Jahonkusho" kabi tarixiy asarlar tarjima qilindi.

Yozuvlar. Xorazmshohlar davlatiga mo'g'ullarning qilgan hujumlari tufayli juda ko'plab manbalar yo'q bo'lib ketgan bo'lishi ehtimoli katta. Sulton Tekish davridan boshlab vaqt o'tgan sari ko'paygan Xorazmshohlar zarb etgan tangalarga oid Britaniya muzeyi kataloglarida va Amsterdam kolleksionlarida ko'plab ma'lumotlar topilgan.

Insho (qo'lyozma) asarlar majmualari:

1. “Abkorul afkor fi’r-rasoil val ash’or”. Bu Xorazmshoh Otsiz davridan Alouddin Tekishning hukmronligigacha Xorazmshohlar Insho devonining munshiysi Rashiduddin Vatvotga tegishli insho namunalari. To‘rt qismdan iborat va qirqta arabcha va forsha maktub va qasidani o‘z ichiga oladi. Uning Istanbul kutubxonalarida turli nusxalari bor. To‘liq nusxasi Istanbul universitetining qo‘lyozma asarlar orasidadir[1].

2. “Aroisu’l-xavotir va Nafoisu’n-navodir”. Rashididdin Vatvot insho namunalarining eng boy to‘plami bo‘lib, ularning 25 tasi forsha, 25 tasi arabcha jami 50 ta maktubdan iborat. Bu maktublardan tashqari mundarijalari turli bir nechta xabarlashmalar, maktub yozishmalari ham bu yerda jamlangan. Bu to‘plamdagi hujjatlarning aksariyati tevarak atrofdagi hukmdorlar bilan maktub yozishmalari va ularning javob nusxalari bo‘lganligi sababli bu majmua Xorazmshohlar davlatining siyosiy tarixiga oid kerakli manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu to‘plam Xorazmshohlar davlati tarixining yozilmay, ochiq qolgan joylarini ozmi ko‘pmi oydinlatish imkonini bermoqda. Bu majmuaning to‘liq va yaxshi saqlangan bir nusxasi Fotih kutubxonasidadir. To‘liq holda nashr qilinmagan.

3. “Umdatul-bulag‘o va udda’tul-fusaho” – Rashididdin Vatvotning yana bir insho asarlari to‘plami bo‘lib, 3 qism 25 ta arabcha, 5 ta forsha maktub, 25 ta arabcha va 25 ta forsha qasidadan tashkil topgan. Bu muallifning kutubxonalarimizda mavjud boshqa majmualarida keltirilmagan ba’zi siyosiy yozishmalarini o‘z ichiga oladi.

4. “Munshaot-i Rashiduddin Vatvot”. Nur-I Usmoniya kutubxonasidadir. Asarning bir qismi muallifning boshqa munshaotlaridan jamlangan bo‘lsa ham unda Otsiz davriga oid bir qancha rasmiy hujjatlar, yozishmalar borki, ular juda kam nashr qilingan nodir manbalardir. Bu to‘planning ko‘p qismi hali nashr qilinmagan.

5. “At-Tavassul-ila at-tarassul”. Munshiy Muayyadil- Bag‘dodiy tomonidan jamlangan. Sulton Alouddin Muhammadning insho, maktub yozishmalari majmusidir. Ushbu to‘plamda yana podshoh tomonidan vazirlik yoki amirlikning unvoni berilganligi haqidagi farmonlar, ahdnomalar, fathnomalar, tevarak atrofdagi hukmdorlarga yozilgan maktublar ham mavjud. Bundan tashqari muallif o‘zi yashagan davrning mashhur kishilariga, do‘stlariga yozgan maktublari va siyosiy xabarlashuvlar ham jamlangan. Mazkur qimmatli to‘plam nashr qilingan.

6. Leningrad “Munshaot” majmuasi: Xorazmshohlar davri tarixiga oid eng boy to‘plam hisoblanadi. Yagona nusxada bo‘lib, u Peterburgda saqlanadi. Rashiduddin Vatvot qalamiga mansub 78 ta, Muntajibuddin hujjatning esa muallifi aniqlanmagan. Keyinchalik bu majmuaning to‘liq holdagi fotonusxasini dotsent,

doktor Muhammad Oltoy Qo‘yman qo‘ga kiritib, ularni har birini sinchiklab o‘rganib chiqib, boshqa mavjud nusxalari bilan qiyosiy tahlil qilib chiqqan.[2/.

7. “Ataba’tul-Kataba”: Sulton Sanjarning Insho devoni boshlig‘i Muayyadu’d-davla Muntajibuddin Badeiyning insholar to‘plamidir.[3/.

Ushbu majmuada davlat boshqaruviga oid 36 ta manshur va 69 ta xususiy maktubni uchratishimiz mumkin. (Manshur- podshoh tomonidan amirlik yoki vazirlik mansabining berilganligini tasdiqlovchi hujjat) hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan xususiy maktublar orqali davlatlar o‘rtasidagi siyosiy jarayonni to‘liq holatda o‘rganishning iloji yo‘qligi sababli o‘rganish jarayonlarida to‘la holatda foydalanilmaydi.

Xronologiya va voqealar tarixi. Xorazm o‘lkasini Saljuqiylar davlati tarkibiga o‘tishi davriga oid ma’lumotlarni biz eng ishonchli manba bo‘lgan Abul Fazli Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy” asari orqali olishimiz mumkin.

Yana bir muhim manba Nosixiy Jazbakoniyning “Tarixi Yaminiy” tarjimasi qismi bo‘ladi. Bu ilova 1206- yilda Iroq- i Ajamda Shamsiddin Oytug‘mish davrida yozilgan bo‘lib, Xorazmshohlar davlati tarixi bo‘yicha juda muhim manba hisoblanadi.

1225-yildan keyin yozilgan Saljuqiylar davlati tarixiga oid “Axborut Davlati Saljuqiya” asarida ham Xorazmshohlar davlati tarixiga oid orginal qaydlar bor.

1216-yilda Ibn Isfandiyor tomonidan ta’lif qilingan 2 jilddan iborat “Tarixi Tabariston” asarining oxirgi jildi uchinchi qismida Xorazmshohlar, Iroq va Xuroson haqida asosli ma’lumotlar bisyor.

Xorazmshohlar davlati haqida ma’lumot beruvchi eng qimmatli manbalardan biri bu shubhasiz, Nasaviyning “Siyрати Sulton Jaloliddin” asari hisoblanadi. Xorazmshohlarning so‘nggi vakili Jaloliddin Manguberdining Insho devoni raisi bo‘lgan Shihobiddin Nasaviy yoshligida vatani Naso va uning atroflarida bo‘lgan vaqtda Sulton Alouddin Muhammadning hamma tadbirlaridan xabardor bo‘lib, davlatning obro‘li amaldorlari va qo‘mondonlari bilan tanish bo‘lgan. Uning Jaloliddin Manguberdiga atalgan asarida Xorazmshohlar davlati, Muhammad Xorazmshoh, Turkon Xotun, davlatning boshqaruv shakli, harbiy salohiyati, ichki hayoti haqida bergan ma’lumotlari juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu kitobdan keying o‘rinda Xorazmshohlar haqida ma’lumot beruvchi muhim manba Atomalik Juvayniyning “Tarixi Jahonkusho” asari hisoblanadi. Asar 3 jilddan iborat bo‘lib, birinchi jildi mo‘g‘ullarga bag‘ishlangan. Xorazmshohlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni esa asarning ikkinchi jildidan toppish mumkin.

Bundan tashqari, Ibn al Asirning “Al komil-fit-tarix” asari ham qimmatli manba hisoblanadi.

Keyingi yana bir muhim manba Minhojuddin Juzjoniyning “Tabaqoti Nosiriy” asaridir. Muallif o‘zi bevosita guvohi bo‘lgan voqealarni asariga yig‘ganligi bois asar original qiymatga egadir

Sayohatnomalar va xotiralar. Xorazmshohlar davlatiga mo‘g‘ullarning qilgan hujumlari tufayli juda ko‘plab manbalar yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lishi ehtimoli katta. Sulton Tekish davridan boshlab vaqt o‘tgan sari ko‘paygan Xorazmshohlar zarb etgan tangalarga oid Britaniya muzeyi kataloglarida va Amsterdam kolleksionlarida ko‘plab ma’lumotlar topilgan Yoqut Hamaviyning “Mujamul buldon” nomli geografik asari muhim manba hisoblanadi. Chunki, muallif aynan mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazm va Movarounnahrda sayohat qilgan va o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan ma’lumotlarni asariga qayd etgan.

Yana bir manbada bag‘dodlik tabib Muvaffaquddin Abdul- Latif ham Muhammad Xorazmshohning Misr va Suriyaga qilgan ishlari haqida kerakli ma’lumotlar va izohlarni bergan. U Chingizxon va Alouddin Muhammad qo‘shinlari orasidagi strategik tafovutlar haqida muhim qarashlarini aytib o‘tgan

Musulmon olimi sifatida sayohat qilgan Ibn Battuta Xorazm haqida xususan, Xivada tug‘ilgan avliyo Najmiddin Kubroni ham tilga olgan. Sayohatchi Urganch shahri haqida juda go‘zal jumlar yozgan: “Bu go‘zal bozorlari, keng ko‘chalari, ko‘plab binolari va ta’sirchan manzaralari bilan turkiylarning eng buyuk, eng go‘zal, eng katta shahri. Shahar aholisining ko‘pligi tufayli hayot bilan gavjum va u dengizga o‘xshaydi”.

Xorazmshohlar sulolasi Xorazm tarixining ajralmas bir qismi bo‘lganligi uchun, ushbu mavzuga bu mintaqaga qo‘shni bo‘lgan bir qancha mamlakatlar olimlari o‘rganish uchun murojaat qilgan. Jumladan rossiyalik tadqiqotchi V.V. Bartold «Туркестан в эпоху монгольского нашествия», Sh. P. Tolstov “По следом древнoхорезмиской цивилизации» kabi asarlarida Xorazmshohlar tarixi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tadilar.

1971-yilda Rimda J.A. Boylning Isfaxonning mo‘g‘ullar tarafidan bo‘ysundirilishi “ deb atalgan asari e’lon qilingan. Aynan shu muallifning boshqa bir “Jaloliddin Xorazmshoh Hindistonda” nomli asari bevosita Jaloliddin Manguberdining Hindistondagi faoliyatiga bag‘ishlanadi. Pokistonda nashr qilinadigan Journal of the asiatic Society (N15/1, 1970) jurnalidagi X. Xan muallifligida tayyorlangan maqola Jaloliddinning Hindistonda bo‘lgan joylarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Nafi Tavfiq al-Ubidning 1978-yili Bag‘dodda nashr qilingan dissertatsiyasida ham biz Xorazmshohlar davlati tarixi haqida qiziqarli ma’lumotlar olishimiz mumkin.

Xorazmshohlar davlati tarixiga oid yana bir muhim tadqiqot – Z. M. Buniyotovning “Государство Хорезмшахов–Ануштегинидов” (1097-1231)

asaridir. Ushbu asarning qimmatli tomoni shuki, unda Xorazmshohlar davlatining 140 yillik tarixi har taraflama tahlil qilinadi.

Xorazmshohlar davlati tarixini butun dunyo olimlari qatori turklar ham juda katta qiziqish bilan o'rganadilar. Xususan, Oktay Bozan, Abdusselam Ertekin, Hasan Geyikog'lu kabi professorlar ilmiy izlanishlar olib boradilar.

Aykut Ozbayraktar Xorazmshohlar shajarasi haqida izlanishlar olib borgan.

Cengiz Zengin Harzemshah ve Jelaliddin Harzemshah nomli kitobi ham muhim ma'lumotlarga to'la.

Turklar orasida Xorazmshohlar davlati haqida ulkan izlanish olib borgan shaxs bu Ibrohim Kafes o'g'lidir. U "Xorazmshohlar davlati tarixi" nomli asar yozadi. Bu asarning qiymati shundan iboratki, muallif o'zigacha bo'lgan davrda yozilgan ko'plab asarlarni o'rganib chiqadi. Ularni bir-biriga qiyoslaydi, tahlil qiladi. Bu davr haqida bir taraflama fikrlamaydi ya'ni, manbalarni qiyosiy tahlil qilib, unga o'zining fikrlarini bildiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xorazmshohlar davlati tarixini yorituvchi minglab manbalar mavjud. Ularning barchasi ushbu davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy hayotini yoritishda alohida o'ringa ega. Faqat, ushbu manbalar bilan ishlayotganda ularni bir-biriga taqqoslab, solishtirib, haqqoniy tazda baho berish juda muhim. Manbalar bizga tarixni haqqoniy yoritishga va ularni kelajak avlodga bus-butun yetkazish uchun kerak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Arslonzoda R.A. Manbashunoslik. T.: O'qituvchi, 2023.
2. Buniyodov Z. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati (1097-1231) (Ahmad Ashraf va Mahkam Mahmud tarjimasi). T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
3. Kafes o'g'li I. Xorazmshohlar davlati tarixi (Nazarbek Rahim tarjimasi). T.: Navro'z nashriyoti, 2016.
4. Madrimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
5. "Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati. Anushtegin Xorazmshohlar sulolasining O'zbek davlatchiligidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Urganch 2023.
6. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi. T.: O'zbekiston FA "Fan" nashriyoti, 1998.
7. Ziyonet <https://api.ziyonet.uz>
8. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org>

9. Docx.uz <https://docx.uz>

10. Xorazmiy.uz <http://xorazmiy.uz>

Shermatova G. S.

The first year master student

Fergana state university

shermatovaguljahon4@gmail.com

SOME REFLECTIONS ON THE SOURCES REGARDING THE HISTORY OF THE KHWARAZMSHAHS' STATE

ABSTRACT

This article provides some information about the source study of the state of Khorezmshahs, which played a significant role in the history of Central Asia, the East, and perhaps even world history, and the golden age of Khorezm history.

Key words: Ottoman period, Anushteginids, historical sources, Jaloliddin Manguberdi, Ibrahim Kafes oglu, manuscripts.

Шерматова Г. С.

Магистрант 1 курса

Ферганский государственный университет

shermatovaguljahon4@gmail.com

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВА ХОРЕЗМШАХОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье приводятся некоторые сведения об источниковедении государства Хорезмшахов, сыгравшего важную роль не только в истории Средней Азии и Востока, но и мира в целом. Представлены некоторые сведения о золотом периоде истории Хорезма.

Ключевые слова: Золотой век, Ануштегиниды, исторические источники, Джалалиддин Мангуберди, Ибрахим Кафесугли, рукописи.